



NKMK
Navoiy Kon-Metallurgiya Kombinati

PRESS-RELIZ

2025-yil 12-mart

OAV vakillari “NKMK” AJ tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot bilan tanishdi

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinati geologiya, konchilik, metallurgiya, energetika, transport, qurilish va boshqa sohalarni mujassam etgan ko‘p tarmoqli strategik ishlab chiqarish klasteri. Mazkur tarmoqlarning har biri bo‘yicha keng qamrovli ishlar, loyihalar, dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa kombinatni rivojlantirish, kelgusi istiqbolini belgilashda alohida ahamiyatga ega.

“NKMK” AJ tomonidan korporativ boshqaruv, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, yuqori turuvchi organlar topshiriqlari ijrosi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va Investitsiya dasturi ijrosi, iqtisodiy va moliyaviy yo‘nalishlardagi ishlar, ishlab chiqarish jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, kadrlar tayyorlash, ishchi-xodimlarning bilim va malakasini oshirish, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, ochiqlikni ta‘minlashda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ishlash bo‘yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot 12-mart kuni ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun o‘tkazilgan matbuot anjumanida muhokama etildi.

Kombinat faoliyatining samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va eng yaxshi jahon standartlariga rioya qilish uchun NKMK tomonidan korporativ boshqaruvning yondashuvlari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. **Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv** kompaniyaning yuqori boshqaruv va ijroiya organlari hisoblanadi. **O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi** “NKMK” AJ ustav kapitalidagi davlat ulushining aksiyadori funksiyasini bajarmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida hujjatlar va topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlash hamda nazorat qilish bo‘yicha zamonaviy tizim joriy etilgan. 2024-yilda **ijro.gov.uz** tizimi orqali **104 ta** O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti topshirig'i nazoratga olingan bo'lib, ijrosi to'liq ta'minlandi va nazoratdan yechildi. Kombinat ichki hujjat aylanish tizimi **edo.ijro.uz** da 2024-yilda **2 546 ta** yuqori turuvchi organlar hujjati (**5 269 ta** topshiriq) ro'yxatga olingan. Shundan, **4 566 ta** topshiriq bajarildi va **703 tasi** ish jarayonida.

2024-yilda "NKMK" AJ tomonidan **93,9 trln. so'mlik** mahsulot ishlab chiqarildi. O'sish sur'ati 2023-yilga nisbatan **105,3 foizga** teng bo'ldi. Oltin ishlab chiqarish rejasini **105,2 foiz**, kumush ishlab chiqarish esa **113,4 foizga** bajarildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga **57,5 trln. so'm** miqdorida soliqlar va dividendlar to'landi.

Investitsiya dasturi doirasida **790 mln. dollarlik** mablag' o'zlashtirilib, **715 ta** yangi ish o'rnini yaratildi. 2024-yilda investitsion loyiha doirasida 3-gidrometallurgiya zavodida yiliga 1 mln. tonna oltin tarkibli ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega 7-tegiron blok ishga tushirildi. "Pistali" konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasining infratuzilma obyektlarini qurish va "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining uchinchi liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish loyihalari ishga tushirildi.

2024-yilda Mahalliyashtirish dasturi doirasida **916 mlrd. so'mlik** mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida **6,2 trln. so'mlik** mahsulot xarid qilindi. Xarajatlarni maqbullashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ijrosi mahsulot tannarxini **3,7 trln. so'mga** kamaytirish imkonini berdi.

2024-yilda "NKMK" AJga "Fitch Ratings" hamda "S&P Global Ratings" xalqaro reyting agentliklari tomonidan "Barqaror" prognozi bilan "BB-" darajasidagi uzoq muddatli kredit reytingi berildi. London fond birjasida kompaniya tomonidan ilk bor **1,0 mlrd. AQSh dollari** miqdoridagi xalqaro korporativ obligatsiyalar joylashtirildi.

Kombinat korxonalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ish jarayonlari samaradorligini oshirish maqsadida, 2024-yilda **10 dan ortiq** axborot tizimlari joriy etildi. Respublika va mahalliy ijro etuvchi organlarda raqamli rivojlanish darajasini reyting baholash tizimida 2024-yil II yarim yillik yakuni bo'yicha raqamli transformatsiya holatini reyting baholash natijalariga ko'ra, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ xo'jalik boshqaruvi organlari o'rtasida **97.98 foiz** ko'rsatkich bilan **1-o'rinni** egalladi.

2024-yilda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida, **15 261 nafar** ishchi-xodim o'qitildi. Shundan, kombinatning 5 ta o'quv markazida **12 840 nafar** ishchi belgilangan dasturlar bo'yicha kasbga o'qitildi. **2 421 nafar** rahbar va muhandis texnik xodim sohasi bo'yicha respublika oliy o'quv yurtlari, mamlakatimiz va xorijiy malaka oshirish markazlarida malakasini oshirdi. O'tgan yilda **qariyb 700 nafar** oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilari kombinat korxonalariga ishga qabul qilindi. Navoiy shahridagi Monomarkazda ta'lim olgan tinglovchilarning **238 nafari** mutaxassisligi bo'yicha kombinat bo'linmalarida amaliyot o'tab, ishga qabul qilindi.

O'tgan yilda "NKMK" AJ rahbariyati nomiga jami **4 066 ta murojaat** yozma, og'zaki, electron va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi hamda Bosh vazirining tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi orqali kelib tushgan. Virtual qabulxona orqali jismoniy va yuridik shaxslardan **2 610 ta murojaat** kelib tushgan. "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori tomonidan **112 nafar**, bosh direktor o'rinbosarlari tomonidan **246 nafar** murojaatchi qabul qilindi.

2024-yilda "CERT International" tashkiloti tomonidan "NKMK" AJga "**Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi**" **ISO 37001:2016 xalqaro standart** sertifikatini berildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida **12 ta banddan** iborat chora-tadbirlar dasturi va kombinat tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha **9 ta banddan** iborat yo'l xaritasi tasdiqlandi va ijrosi to'liq ta'minlandi. Komplayens xizmati tomonidan jami **7 121 ta (6 164 ta buyruq va 957 ta farmoyish)** ichki idoraviy hujjat korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **516 ta ichki idoraviy hujjat** normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi. O'tgan yil yakuni bo'yicha **29 ta turdagi** ma'lumot va hisobotlar "**E-Anticor.uz**" elektron platformasiga kiritildi. Kombinats faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar www.ngmk.uz rasmiy veb-saytida joriy etilgan "**Ochiq ma'lumotlar**" bo'limida doimiy tarzda yangilanib, belgilangan muddatlarda e'lon qilinmoqda.

Ochiqlikni ta'minlashda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilgan ishlar doimiy ravishda yoritib borilmoqda.

2024-yilda OAV vakillari va jurnalistlar uchun mas'ul rahbarlar ishtirokida **16 ta** matbuot anjumani, brifing va press-tur tashkil etildi. Ommaviy axborot vositalarida (Internet, TV, gazeta, radio) “NKMK” AJ faoliyati to'g'risida **438 ta** xabar, yangilik, maqola, videolavha, reportaj, eshittirish e'lon qilindi. O'tgan yilning yanvar-dekabr oylarida www.ngmk.uz rasmiy saytda o'zbek, rus, ingliz tillarda **346 ta** xabar, yangilik, maqola, tahliliy maqola, infografika joylashtirildi. Telegram, Facebook, Instagram, Youtube, Twitter, LinkedIn ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda **qariyb 10 000 ta** post va videolavha joylashtirildi. Xorijiy OAVlarda **22 ta** xabar, yangilik, maqola, tahliliy maqola e'lon qilindi.

O'tgan yilning 21-22-iyun kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi “Gornyak” pansionatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va “NKMK” AJ hamkorligida davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlari uchun 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuniga bag'ishlangan **“Axborot xizmatlari faoliyati: ochiqlik, tezkorlik va xolislik bosh mezon”** mavzusida an'anaviy Milliy konferensiya va Media-forum o'tkazildi.

Tadbirda OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

2024-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot bilan www.ngmk.uz rasmiy veb-saytning “Ochiq ma'lumotlar” bo'limida quyidagi [havola](#) orqali batafsil tanishish mumkin.

“NKMK” AJ Matbuot xizmati.